NIKKOLO MAKIAVELLINING “HUKMDOR” ASARIDA SIYOSIY HOKIMIYAT VA DAVLAT MANFAATLARI MASALASI

Muhammadzokirova Fotima Boburjon qizi,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: *Qolqanov Nuriddin,*
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsenti,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

Ushbu tezisda italiyalik mutafakkir Nikkolo Makiavellining “Hukmdor” asarida siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish va mustahkamlash, davlat manfaatlarini himoya qilish hamda siyosiy barqarorlikni ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Hukmdorning siyosiy vaziyatni real baholashi, harbiy kuchga tayanishi, xalq bilan munosabatlari va qarorlar oqibatini oldindan ko‘ra bilishi kabi jihatlarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, asardagi ayrim g‘oyalarning zamonaviy davlat boshqaruvi va siyosiy yetakchilik nuqtayi nazaridan ahamiyati muhokama qilinadi

Kalit so‘zlar: Nikkolo Makiavelli, “Hukmdor”, siyosiy hokimiyat, siyosiy realizm, davlat manfaatlari, suverenitet, harbiy kuch, siyosiy barqarorlik, siyosiy yetakchilik, davlat boshqaruvi

XVI asr boshlarida Italiya siyosiy jihatdan parchalangan, shahar-davlatlar o‘rtasidagi raqobat kuchli bo‘lgan va yarimorolga tashqi davlatlar aralashuvi kuchaygan edi. Ana shu tarixiy sharoitda Nikkolo Makiavelli 1513-yilda “Hukmdor” (Il Principe) asarini yozdi. Asarda hokimiyatning tabiati, yangi egallangan hududlarni boshqarish, harbiy kuch, siyosiy ittifoqlar va hukmdor bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlar muhokama qilinadi. Makiavelli siyosatni faqat orzu qilingan axloqiy

me’yorlar orqali emas, balki mavjud kuchlar muvozanati va real sharoitlardan kelib chiqib tahlil qilishga intiladi.

Makiavellining yondashuvidan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, siyosiy hokimiyatning barqarorligi faqat hukmdorning shaxsiy fazilatlariga emas, balki vaziyatni to‘g‘ri anglash, resurslarni boshqarish va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog‘liq. Asarda hukmdor har bir vaziyatda bir xil usul bilan ish tutmasligi, sharoitni baholab, siyosiy oqibatlarni oldindan hisobga olishi lozimligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Makiavellining qarashlarini zamonaviy demokratiya bilan bevosita tenglashtirish to‘g‘ri emas: “Hukmdor” asari, avvalo, o‘z davridagi hokimiyat kurashlari va davlatni saqlab qolish muammolari doirasida yozilgan.

Bugungi davlat boshqaruvi bilan qiyoslaganda, ushbu fikrlar siyosiy qarorlarning legitimligi, fuqarolar ishonchi va davlat institutlarining barqarorligi masalalarini muhokama qilishga yordam beradi. Biroq zamonaviy demokratik tizimlarda hokimiyatning qonun bilan cheklanishi, fuqarolarning siyosiy ishtiroki va inson huquqlarining kafolatlanishi alohida mezonlar hisoblanadi.

Asardan o‘rganishimiz mumkinki, hukmdor xalqga nisbatan doim ham qattiq siyosat yuritmasligi kerak. Bu haqida asarning VIII bobida ta’kidlab o‘tilganidek, yaxshilikni oz-ozdan ammo ko‘p-ko‘p qilib borish kerak 1 . Bu holatni hozirgi zamonaviy siyosatda bir savol bilan izohlashimiz mumkin ya’ni ko‘plab davlatlar nima uchun demokratik boshqaruv usulini tanlashyapti. Bu holatga sabab qilib avtogratik tizimning hokimyat, bir shaxs yoki ma’lum bir doiradagi guruh qo‘lida jamlanganini misol qilib ko‘rishimiz mumkin. Demokratik tizim esa fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishini ta’minladi aynan shu sabab tufayli ham hozirgi kunda ko‘plab davlatlar demokratik tizimdan foydalanadi. Bu holat esa Makiavellining yuqoridagi g‘oyasining hozirgi davr siyosatidagi amaldagi g‘oyasini ko‘rsatish mumkin.

1 Makiavelli N. Hukmdor. – Toshkent: DAVR PRESS, 2019. – B. 55.

Makiavelli davlat xavfsizligida hukmdorning o‘z qo‘shiniga tayanishini muhim deb biladi. Uning fikricha, yollanma va ittifoqchi qo‘shinlar hukmdorni boshqa kuchlarning manfaatlariga qaram qilib qo‘yishi mumkin. Yollanma askarlarning sadoqati ko‘pincha haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, muallif ularni ishonchsiz kuch sifatida tasvirlaydi. Makiavelli yollanma qo‘shinlar haqida shunday degan: “Yollanma va ittifoqdosh qo‘shinlar befoyda va xatarlidir” 2 ular hokimyatni mustahkamlashdan ko‘ra uni yemiradi. Misol uchun, qadimda Karfagen qo‘shin yollagan edi, karfagenliklar qo‘shinga o‘z fuqarosini lashkarboshi qilishgan edi, ammo Rim bilan bo‘lib o‘tgan birinchi jangdan keyinoq ular uning o‘zini bosib olishga sal qoldi.

Makiavelli hukmdor xalq nafratini qo‘zg‘atadigan xatti-harakatlardan ehtiyot bo‘lishi kerakligini ham ta’kidlaydi. Uning fikricha, fuqarolarning mol-mulki va sha’niga tajovuz qilish, shuningdek, hukmdorning beqaror yoki irodasiz ko‘rinishi hokimiyatga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu qarash “Hukmdor”ning XIX bobida batafsil yoritilgan3. Mazkur fikrni bugungi boshqaruv nuqtayi nazaridan talqin qilganda, davlat qarorlari qonuniy, asosli va jamoatchilik manfaatlarini hisobga olgan bo‘lishi zarurligini ko‘rish mumkin.

Zamonaviy jamiyatda barqarorlikni ta’minlash faqat tartib-intizom bilan cheklanmaydi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlarining hisobdorligi hamda jamoatchilik bilan ochiq muloqot ham davlatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Agar qarorlar aholining ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirsa yoki ularning huquqlariga zid kelsa, norozilik kuchayishi mumkin. Shu sababli, Makiavellining xalq munosabatiga doir mulohazalarini bugungi kunda huquq ustuvorligi va fuqarolar ishonchi bilan bog‘liq holda tanqidiy o‘qish maqsadga muvofiq.

Asarning V bobida Makiavelli avval o‘z qonunlari va erkinliklariga ega bo‘lgan hududni boshqarishning uch yo‘lini muhokama qiladi: uni vayron qilish, hukmdorning

2 Makiavelli N. Hukmdor. – Toshkent: DAVR PRESS, 2019. – B. 68-69.
3 Qarang: Makiavelli N. Hukmdor. – Toshkent: DAVR PRESS, 2019. – B. 98-111.

o‘zi o‘sha yerda yashashi yoki aholiga avvalgi qonunlari asosida yashash imkonini berib, soliq undirish. Muallif bu usullarni o‘z davridagi siyosiy tajriba va hukmronlikni saqlash muammolari bilan izohlaydi 4. Ushbu qarashlarni bugungi xalqaro huquq me’yorlari bilan aynan bir xil deb talqin qilib bo‘lmaydi: zamonaviy dunyoda hududiy yaxlitlik, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va xalqaro huquq tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarixiy tavsif bilan bugungi siyosiy-huquqiy bahoni farqlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, Nikkolo Makiavellining “Hukmdor” asari siyosiy hokimiyat, davlat xavfsizligi va barqaror boshqaruv masalalarini anglashda muhim manba bo‘lib qolmoqda. Muallif hukmdorning siyosiy vaziyatni real baholashi, kuchlar nisbatini tushunishi va qarorlar oqibatini hisobga olishini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, asardagi g‘oyalarni zamonaviy siyosiy tizimlarga tatbiq etishda ularning tarixiy sharoitda yuzaga kelganini unutmaslik kerak. Bugungi davlat boshqaruvi nafaqat barqarorlik va xavfsizlikni, balki qonun ustuvorligi, fuqarolar huquqlari, hisobdorlik va jamoatchilik ishonchini ham ta’minlashi lozim. Demak, “Hukmdor” asarining ahamiyati undagi barcha tavsiyalarni so‘zsiz qabul qilishda emas, balki siyosiy hokimiyatning imkoniyatlari, xavflari va mas’uliyatini tanqidiy tahlil qilishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Makiavelli N. Hukmdor. – Toshkent: DAVR PRESS, 2019.
2. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/maiavelli-hikmatlari.html
3. https://interspp.com/index.php/yurtfaxri/article/download/1440/1127/2186
4. https://soff.uz/product/taqdimotlar-tarix-nikolo-makiavellining-hukmdor-asarining-tahlili
5. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/

4 Qarang: Makiavelli N. Hukmdor. – Toshkent: DAVR PRESS, 2019. – B. 32-35.